

## BUXORO JADIDCHILARINING MADANIY-MARIFATI

*Ilmiy rahbar: Samatov. X*

*Istamov M.D.*

*TATU Samarqand Filiali Kompyuter Injineriing fakulteti*

*KI23-02 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jadid sozining manosi uning kelib chiqishi, jadidchilik harakatining asoschilari hamda ularning goyalari haqida gap boradi. Shuningdek Buxoro marifatparvar vakillarining milliy istiqlol va ozodlik ushun kurashganliklari bayon qilingan.

**Аннотация:** В данной статье говорится о значении слова джадид, его происхождении, основателях джадидского движения и их идеях, а также описывается борьба просвещенных представителей Бухары за национальную независимость и свободу.

**Abstract:** This article talks about the meaning of the word jadid, its origin, the founders of the jadid movement and their ideas. It also describes the struggle of the enlightened representatives of Bukhara for national independence and freedom.

**Kalit sozlar:** Marifat, jadidizm, taraqqiyot usuli, jadid, milliy istiqlol, Turkiston.

Yangi Ozbekiston ozining kohna tarixi va boy madaniyatiga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Chunki hozirgi mustaqil ona yurtimiz oz-ozidan paydo bolib qolgan emas. Buning uchun minglab vatandoshlarimiz oz jonlaridan kechib, istiqlolli kunlar nashidasini tatmay otib ketdilar. Bugungi kunda esa biz yoshlar yurtimiz tarixini madaniy merosni chuqur organishimiz lozim. Olimlarimiz, tadqiqotchilarimizning bu boradagi izlanishlari va harakatlari qadimiy tariximizni batafsil yoritishga yordam bermoqda. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan uchrashuvlarida: "Yangi Ozbekistonni, albatta yoshlar bilan birga quramiz"-degan takidlari bizni yanada ruhlantirib, goyoki ozimizni ilohiy kuch olgandek his qilamiz.

Shunday ekan, bosib otgan yolimizga bir nazar tashlash lozimki, biz yashab turgan yurt tinchligi, osoyishtaligi, gozalligi, mol-kolligi uchun shukronalik tuygusi yanada yuraklarda barq ursin. Mana shunday vatanimiz ozodligi uchun kurashgan jadidchilik harakati bunga yaqqol misol bola oladi.

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: جديد jadīd — yangi) — XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatdir. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi.

Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanishhamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g'oyalarini targ'ib qilishgan.

Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal, millatchilik harakati“ deb ta'rif berilgan. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSR parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi.

Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921—1929-yillarni o'z ichiga oladi.

Buxorodagi jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullalar, mayda do'kondorlar va ma'murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o'rtasida nufuzi avvaliga past bo'lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo'lishdi. Buxoroda vobkentlik dehqon Jo'raboy ilk yangi usul maktabini ochgan edi.

Buxorodagi jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo'lgan qadimchilar oqimi qarshi chiqdi. 20-asr boshlarida Buxoro jamiyati 2-guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimchilarga bo'lingan edi.

1908-yil „Buxoroi sharif shirkati“ tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug'ullandi. Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov), Usmonxo'ja Po'latxo'jayev (Usmon Xo'ja), Homidxo'ja Mehriy, Abdulvohid Burhonov, Abdulqodir Muhiddinov, Sadridin Ayniy, Abdurahmon Sa'diy shirkatning tashkilotchilari edi. 1909-yil dekabrda jadidlar Buxoroda „Tarbiyai atfol“ („Bolalar tarbiyasi“) maxfiy jamiyatini tuzishdi (asoschilari: Abdulvohid Burhonov, Homidxo'ja Mehriy, Ahmadjon Hamdiy, Mukammil Burhonov, Hoji Rafe). Bu jamiyat turkistonlik va buxorolik yoshlarni Istanbuldagi „Buxoro ta'mimi maorif jamiyati“ bo'limiga o'qishga jo'natdi. Xorijdagi ta'lim yoshlar dunyoqarashida burilish yasadi. Jadidchilik Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo'lsa ham, amirlikdagi og'ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi. 1910-yildan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va „Tarbiyai

atfol“ maxfiy jamiyatiasosida partiya tashkil topdi.”

"Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish. Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi."

Buxorodagi «Yosh buxoroliklar» qizgin ijtimoiy jadidchilik harakatining paydo bolishi bunga yorqin dalilidir. Jadidchilar harakati faqat madaniy-marifiy xarakat, yani eski maktablarning qiyin oqitish tizimiga nisbatan Yangi usuliga asoslangan Yangi uslub (metod) asosidagi oqitishga oqitishdangina iborat emasdi. U ayni chogda keng, chuqur mazmundagi manaviy-marifiy, milliy taraqqiyot va milliy istiqloq muammolarini ham oz ichiga olgan edi. «Turkiston jadidlari, - deb takidlanadi. «Ozbekiston tarixi» malumotnomada, - adolat, erk va ozodlik uchun kurashda oz faoliyatlarini uch yonalishda olib bordilar: birinchidan, yuqorida qayd etilganidek, yangi usuldagi jadid maktablari ochish, ikkinchidan, umidli yoshlarni chet ellarga oqishga yuborish va uchinchidan turli marifiy jamiyatlar tuzish yoli bilan omma ortasida targibot-tashviqot ishlarini yolga qoyish orqali ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etish:

«Jadidlarning xalq marifati uchun kurash dasturi uch asosiy yonalishdan iborat bolgan:

- Yangi usul maktablari tarmogini kengaytirish
- Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga oqishga yuborish;
- Turli marifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishgaqaratilgan gazetalarni chop etish».

Jadidchilik bunday goyalarning mintaqaviy-hududiy va tarixiy shakllarida ozlarining yetakchilari va rahbarlariga ega edi. Chunonchi, Qrim, Kavkaz, Volgaboyi-Bulgor va Janubiy Uroldagi jadidchilikka Ismoil Gaspirali, Jovid Husaynzoda, Muso Jorulloh Qozoniy, Rizouddin ibn Faxriddin rahnamolik qilishgan edi.

Turkistonda Munavvar Qori, Behbudiy va boshqalar yetakchilik qilishgan edi. Buxoroda «Yosh buxoroliklar» hukumati, Jumhur rais Usmonxoja, Fitrat va boshqalar yoboshchilik qilishgan edi.

Umuman Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxoja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Azjiy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla

Asadullaxojaev (Ubaydulla Xojaev), Toshpolatbek Norbotabekov<sup>11</sup> (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xojaev, Usmonxoja Polatxojaev, Abdulvohid Burxonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cholpon, Isxoqxon Ibrat, Muham-madsharif Sofizoda (Fargona vodiysi), Polvonniyoz Hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm) turardi.

"Buxoro jadidlari ijtimoiy-siyosiy faoliyatini organish shuni korsatdiki, ularni asosan faoliyatiga kora, ozaro muholifatsiz bolgan tortta yirik yonalishga ajratish mumkin: Sarmoyadorlar guruhi, jadid dramaturgiyasi va teatri vakillari, jadid muallimlari guruhi, taraqqiyparvar ulamolar guruhi. Ularning qollab - quvvatlanishi va himoyasi ostida koplalab jadid maktablari tashkil etildi. Keyinchalik esa, siyosiy jabhalarda ham ular jadidlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritdilar.

XIX asrning songgi choragidan boshlab yangi usul maktablari tashkil topdi. Bu maktablarda dastlab, Orenburg, Toshkentda nashr etilgan oquv darsliklaridan foydalanildi. XX asrning 10-yillaridan etiboran esa mahalliy jadidlar tomonidan ham koplalab darsliklar nashr ettirildi.

Jadidlar uchun marifatparvarlik doimo ustivor yonalishlardan biri sifatida qolaverdi. Jumladan, ular chor tuzumining zulmi nisbatan yumshagan sharoitda yangi usuldagi maktablarni tashkil etish boyicha kuch-gayratlarini sezilarli darajada kuchaytirishdi.

1918 yil fevral boshlariga kelib chor xukumati tomonidan Turkistonda 4 mingdan ortiq bola oqiydigan 100 ga yaqin yangi usuldagi maktablar royxatdan otkazilgan<sup>1</sup>. Ularni hammasi xususiy mablaglar hisobiga faoliyat yuritgan bolib, oqish uchun oyiga 50 tiyindan 3 somgacha haq olinar edi.

Marifatchilikni jadidlar dastlab maktab tashkil etishdan boshlagan edilar. 1916 yilga kelganda esa, maxalliy taraqqiyparvarlar tomonidan Buxoroda Oliy oquv yurtini tashkil etish uchun ham harakatlar boldi. Teatr sanati orqali marifatchilik goyalarini targib qilish uchun koplalab dramatik asarlar yaratildi va ijro etildi. Shubilan birga ular xalq maishiy turmush tarzida ham marifatli qilishning targibotchilari bolib maydonga chiqdilar. Millatni iqtisodiy-siyosiy, maishiy turmush sohasida marifatli qilishga intilib faoliyat olib bordilar. Ular oz faoliyatlari bilan bexat va xurofotga, jamiyat taraqqiyotiga tosiq bolayotgan har qanday holatga qarshi murosasiz kurash olib bordilar

Jadidchilik harakatining muayyan hududlarda oz yetakchi va rahbarlariga ega bolib, ularning faoliyati va amalga oshirgan ishlarida jadidchilikning maqsadlari, qarashlari va goyalari oz ifodasini topgan edi.

Turkistondagi jadidchilik harakatining namoyondasi XX asr ozbek adabiyoti, ozbek fani va madaniyatining yirik vakili Fitratdir. U qomusiy bilimga ega olim, adabiyot nazariyachisi, otkir tilshunos, betakror dramaturg va shoir, jangovorpulblist, shoir va jurnalist, istedodli davlat va jamoat arbobi Abdurauf Fitratdur (1886-1938)

Abdurauf Fitrat 1886 yilda Buxoroda tugildi. Fitrat Abduraufning taxallusi bolib, «tugma istedod, tugma tabiat, porlamoq manolarini anglatadi. Uning otasi Abduraxim savdogarchilik bilan shugullangan dindor, oqimishli, shaxs bolgan, onasi Mustafobibi noziktab, savodli ayol bolib, asosan farzandlar talim-tarbiyasi bilan shugullangan.

Fitrat dastlab eski maktab va Mir Arab madrasasida talim olib, 1909 yili «Jamiyatixayriya»ning komagida bir guruh yoshlar bilan birga, Rossiya shaharlari orqali Turkiyaning Istanbul shahriga oqishga yuboriladi. U 1909-1913 yillarda Turkiyada tahsil oladi. U erda Istanbul dorilfununining vazxonlik fakultetida oqiydi.

Fitrat Istanbulda tashkil etilgan «Buxoro talimi maorif jamiyati»ning faol ishtirokchilaridan biriga aylanadi. Shu bilan birga, u, turk inqilobchi yoshlari harakatiga ham arapashadi va bu faoliyatini keyinroq oz vatanida, yosh buxoroliklar jamiyatining inqilobiy kurashida davom ettiradi. Uning dastlab yaratilgan «Munozara» (1909), «Hind sayyohi» (1911), «Rahbari najot» (1915) asarlari nafaqat badiiy va diniy, balki ijtimoiy va falsafiy, marifiy va axloqiy ruxdagi asarlar edi. Ularning mohiyatida jadidchilik goyalari yotar edi

Fayzulla Xojayev Buxorodagi jadidchilikning Turkistondagi islohotchilik harakatidan farqli jihatlariga etibor qaratib bunday yozadi: “Buxoroda harakat boshqa yol bilan bordi. Buxoro jadidchiligi dehqonlar va mayda savdogarlarga tushadurgan soliq ogirliqlarini yengil qilish ham soliq ishlarini umumiy tartibga solish togrisida ochilgan gapdan boshlab, tadrijiy suratda kop azolar, shobalar va Buxoro xalqining har xil tabaqalari orasidagi oziga xayrixoh omma bilan birgahaqiqiy bir yashirin jamiyatga aylana bordi” (Xojayev F. Buxoro inqilobining tarixiga materiallar. Toshkent, “Fan”, 1997. 63-bet).

Keyinchalik bu harakatga maktab va madrasalarni isloh qilish, dunyoviy fanlarni oqitishga etiborni kuchaytirish kabi marifatparvarlik goyalari bilan chiqqan ayrim hukumat amaldorlari, mahalliy boylar, savdogarlar, ulamolar, mudarrislar vatalabalar qoshildi. Ular safida Ahmadjon Hamdiy,

Hamidxoja Mehriy, Sadriddin Ayniy, Xoja Rofe, Mukammal Burhon, Usmonxoja Polatxoja ogli, Atoxoja kabilar bolgan.

1908-yil oktabrda Abduvohid Munzim oz uyida tojik tilida dars beruvchi ilk usulijadid maktabini ochadi. Bir yildan song ushbu maktab oquvchilari tantanali suratda imtihon topshiradi. Oquvchilarning bilimidan tasirlangan keksa ziyoli Boriboy afandi koziga yosh olib, majlis ahliga bunday murojaat qiladi: “Men umidvormanki, on yilgacha Buxoroda inqilob voqe bolur, vatan avlodi bu kuni razolat va safolatdan qutulur, esizki, u kunni men kora olmayman, siz yoshlar korasiz. Ming qatla shukurkim, ishning boshlanganini kordim” (Ayniy S. Asarlar. 8 tomlik. 1-tom, Toshkent, “OzSSR davlat Badiiy adabiyot nashriyoti”, 1963. 210-bet).

Ammo bu xayrli ish eski tartib tarafdori bolgan “qadimchilar” qarshiligiga uchradi. Mulla Qamar, Mulla Xolmurod, Mulla Abdurasul Zakun va Mulla Abdurauf

mudarris, ulamolar vakili sifatida, qushbegidan maktabni yopishni qatiytalab qildi.

Maktab yopib qoyilsa-da, jadidlarning gayrati zarracha susaymadi. 1909-yil dekabrda Sadridin Ayniy, Abduvohid Munzim, Ahmadjon Hamdiy, Hamidxoja Mehriy, Hoji Rofe, Mukammal Burhonovlar “Tarbiyai atfol” jamiyatini tuzadi. Marifatparvarlar yashirin ish olib borib, Termiz, Karki, Yangi Buxoro va Gijduvonda jamiyatning 28 ta shaxobchasini ochdilar.

Xulosa qilib aytganda Turkistonda vujudga kelgan jadidlikning asosiy maqsadi jamiyat taraqqiyoti uchun kerak bo‘lgan barcha sohalarda innovatsion g‘oyalarni joriy qilish edi. Bu bilan jadidlar aholining yashash tarzini o‘zgartirishni, ularning ma’naviy ongini rivojlantirishni asosiy maqsadlaridan biriga aylantirgan. Jadidlar Turkistonda milliy rivojlanish pozitsiyasining boshida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlash g‘oyasini olib chiqdi. Ular siyosiy faoliyatida mustaqillik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan maqsadni ilgari surdi.

Jadidlar milliy rivojlanish bilan qaramlikka qarshi kurashmoq lozimligini angladi. Bu g‘oyalar jadidlar siyosiy faoliyatining asosini tashkil etdi. Shuning uchun jadidlar mazlum xalqni ozodlik kurashiga chorladi.

Jadid bobolarimizning ulug‘ maqsadlar yolidagi mardona kurashi va fidoyi, jonkuyarligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz uchun haqiqiy ibrat maktabi bolib xizmat qilmog‘i zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nazarov. O‘zbek falsafasi. —T., 2003.
2. Tulak. XX asr o‘zbek adabiyoti. —Andijon, 1993.
3. Qosimov. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoiylik. —T., Ma’naviyat, 2002.
4. Sh.G‘affarov. Istibdod davrida Turkistondagi ta’lim tizimi. — Samarqand.: SamDUNashr, 200. Tog‘aev. va boshqalar. Darsda jadidchilik va uning mohiyatini o‘rganish.// “Xalqta’limi”, 1993, 1-son.
5. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. —T.: Universitet, 1999.
6. Hoji Muin. Oila tarbiyasi. “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi, 1918 yil 9 iyul.
7. Guli Mahmudova. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. —T., 2006.
8. Xo‘jayev. Tanlangan asarlar: uch tomlik. —T.: Fan, 1976. 1-tom.
9. O‘zbekiston tarixi: Yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Davra suhbat materiallari. 1998 yil 9 oktabr. —T.: Eldinur nashriyot uyi, 1998. Dilnavoz TAG‘OYEVA,
10. BuxDUPIning “Ijtimoiy fanlar” kafedrasini o‘qituvchi
11. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik>
12. <https://www.buxhari.uz/?p=23165&lang=oz#:~:text=Fikrimizning%20xulosasi%20Turkistonda,falsafasi.%20%E2%80%93T.%2C%202003>